

FINTEX KOMPANIYALARI VA ULARNING YOSHLAR MOLIYAVIY TA'LIMIDAGI ROLI

Foziljonova Niholaxon Fayoz qizi

*Namangan davlat universiteti, Iqtisodiyot fakulteti,
Moliya sohasida boshqaruv yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada fintech (moliyaviy texnologiyalar) kompaniyalarining yoshlar moliyaviy savodxonligini oshirishdagi roli va imkoniyatlari tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar kundalik hayotga chuqur kirib kelar ekan, ayniqsa yosh avlod orasida moliyaviy ilovalardan foydalanish orqali shaxsiy byudjet yuritish, to'g'ri xarajat qilish, sarmoya kiritish kabi ko'nikmalar shakllanmoqda. Fintech xizmatlar ta'lim jarayoniga qo'shimcha qulaylik va interaktivlik olib kirayotgani bilan ahamiyatlidir. Maqolada O'zbekiston misolida fintech xizmatlarining kengayishi, ulardan foydalanish ko'lamining ortib borayotgani, ammo hali moliyaviy madaniyat va xavfsizlik borasida to'liq bilimga ega bo'lmagan yoshlar ham borligi qayd etiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, fintech vositalaridan samarali foydalanish, ularni ta'limiy yondashuvlar bilan to'ldirish orqali moliyaviy mas'uliyatni shakllantirish mumkin.

Abstract. This article explores the role and potential of fintech (financial technology) companies in enhancing financial literacy among youth. As digital technologies increasingly shape everyday life, young people are gaining access to tools that help them manage personal budgets, control spending, and explore investment opportunities. Fintech services are becoming not only convenient solutions but also valuable educational aids. Using Uzbekistan as a case study, the article analyzes the growing use of fintech applications and highlights that while usage is expanding, many young users still lack sufficient knowledge of financial culture and digital security. The findings suggest that integrating fintech tools with effective educational approaches can foster responsible financial behavior among youth.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль и возможности финтех-компаний (финансовых технологий) в повышении финансовой грамотности молодежи. С развитием цифровых технологий молодежь получает все больше возможностей для самостоятельного управления личными финансами — от составления бюджета до инвестирования. Финтех-сервисы становятся не только удобным инструментом, но и дополнительным образовательным ресурсом. На примере Узбекистана проанализированы масштабы использования финтех-продуктов, выявлено, что несмотря на рост интереса, не все пользователи обладают необходимым уровнем финансовой культуры и знаний в сфере безопасности. По результатам анализа подчеркивается, что правильное

использование финтех-услуг совместно с образовательными подходами способно сформировать ответственное финансовое поведение у молодежи.

Kalit so‘zlar: fintech, moliyaviy savodxonlik, yoshlar, raqamli texnologiyalar, ta’limiy yondashuv.

Kirish. Jahon miqyosida moliyaviy texnologiyalar (fintech) bozorining o‘sishi va bu sohadagi innovatsiyalar yoshlar moliyaviy savodxonligini yangicha bosqichga olib chiqmoqda. 2024-yilda fintech bozori global darajada 514,9 milliard dollarga yetgan va 2028-yilgacha yillik 25,2% o‘sish sur’ati (CAGR) bilan o‘sishi prognoz qilingan. Shu bilan birga, fintech va moliyaviy savodxonlik o‘rtasidagi ijobiy o‘zaro bog‘liqlikni ko‘rsatuvchi ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Masalan, 114 ta davlatni qamrab olgan bir tahlil fintech bozorining o‘sishi moliyaviy savodxonlik darajasi bilan musbat bog‘liqligini ko‘rsatadi. Yana bir tadqiqotda fintech vositalariga kirish imkoniyati moliyaviy inklyuziyani oshirishi mumkinligi ta’kidlanadi, biroq bu ta’sir moliyaviy savodxonlikning pastligi bilan cheklanib qoladi. Yoshlar orasida moliyaviy savodxonlik darajasi turlicha. OECD’ning PISA ma’lumotlariga ko‘ra, 15 yoshli o‘quvchilarning ko‘pchiligi onlayn to‘lovlar va mobil pul o‘tkazmalaridan foydalangan bo‘lsa-da, ular asosiy moliyaviy tushunchalar (foizlar, qarz, xavf) bo‘yicha muammolarga duch kelmoqda. Ya’ni, raqamli texnologiyalar keng qo‘llanayotgan bo‘lsa-da, moliyaviy bilim yetarli emas. O‘zbekistonda fintech va yoshlar savodxonligini rivojlantirishdagi sa’y-harakatlar, ayniqsa davlat banklari va Uzcard kabi operatorlar tomonidan Global Money Week tashabbuslari orqali amalga oshirilmoqda. Masalan, 2024-yilda O‘zbekistonda: 428 ta maktabda 23 462 nafar o‘quvchi uchun moliyaviy savodxonlik darslari o‘tkazilgan, 2 135 nafar universitet talabasiga maxsus treninglar o‘tkazilgan, viktorinalar va “edutainment” formatidagi materiallar orqali 4 945 nafar talaba, hamda 21 000 nafardan ortiq maktab o‘quvchilariga onlayn testlar taqdim etilgan. Shuningdek, Uzum va Mastercard hamkorligida o‘tkazilgan onlayn kurslar tashabbusi yoki qarz va kartalardan xavfsiz foydalanish bo‘yicha videodarslar — yoshlar moliyaviy bilimini oshirishga qaratilgan yangi uslublardandir. Demak, ishonchsiz, bir tomonlama raqamli vositalar emas, balki moliyaviy savodxonlik bilan uyg‘un fintech yechimlari yoshlar uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Ushbu maqolada: fintech kompaniyalari qanday uslub va mahsulotlar orqali yoshlarni moliyaviy savodxonlikka o‘rgatayotgani; jahonda va O‘zbekiston misolida statistik ko‘rsatkichlar qanday natija berayotgani; olib borilayotgan tadqiqotlar va tahlillar asosida qanday istiqbolli yo‘nalishlar mavjudligi haqida fikr yuritamiz.

Metodologiya.

Ushbu maqola ta’riflovchi (deskriptiv) tadqiqot uslubiga tayangan holda, fintech kompaniyalarining yoshlar moliyaviy ta’limidagi rolini o‘rganishga yo‘naltirilgan.

Tadqiqot davomida bevosita empirik tadqiqot yoki so'rovnoma o'tkazilmagan. Aksincha, mavjud ochiq manbalar, ishonchli xalqaro tashkilotlar hisobotlari, ilmiy maqolalar, bank va fintech kompaniyalarining rasmiy saytlaridagi ma'lumotlar tahlil qilindi. Ma'lumotlar asosan ikkilamchi manbalardan olindi. Jumladan, OECD tashkilotining moliyaviy savodxonlikka oid statistik hisobotlari, Jahon banki va Global Money Week kabi xalqaro tashabbuslarning O'zbekiston bo'yicha natijalari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari hamda "Uzum", "Click", "Payme", "Apelsin" kabi yirik fintech kompaniyalarining faoliyatiga oid tahliliy ma'lumotlar asos sifatida xizmat qildi. Ma'lumotlar kontent tahlili usulida tahlil qilindi, ya'ni mavjud hujjat va hisobotlar mavzuga oid muhim g'oyalar asosida ajratilib, guruhlanib, mantiqiy tarzda umumlashtirildi. Asosiy e'tibor fintech xizmatlarining yoshlar orasida qanday tarqalayotgani, bu xizmatlar orqali moliyaviy savodxonlikka oid bilim va ko'nikmalar qanday shakllanayotgani, shuningdek, O'zbekiston tajribasi bilan rivojlangan davlatlar tajribasi o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarga qaratildi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, maqola muallifi sifatida men shaxsan yangi so'rovnoma yoki intervyular asosida empirik ma'lumot to'plamaganman. Shu sababli, maqoladagi xulosalar mavjud manbalar asosida shakllantirilgan bo'lib, ularning aniqligi va haqqoniyligi tanlangan manbalarning ishonchliligi bilan bevosita bog'liqdir. Biroq foydalanilgan materiallar faqat rasmiy, ilmiy va statistik asosga ega bo'lgan manbalarni o'z ichiga oladi.

Natijalar. So'nggi yillarda O'zbekistonda yoshlarning moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar samarali natijalar berayotgani kuzatilmoqda. Bu borada ayniqsa fintech kompaniyalari va tijorat banklarining faol ishtiroki, shuningdek, Global Money Week (GMW) doirasidagi tadbirlar yoshlar ongida moliyaviy mas'uliyat, tejash, rejalashtirish va investitsiyalash kabi tushunchalarni shakllantirishda muhim rol o'ynadi.

2024-yilda o'tkazilgan Global Money Week tadbirlari respublika miqyosida keng yoritildi. Aniq qilib aytganda, tadbirlar doirasida 428 ta maktab, 88 ta oliy ta'lim muassasasi va 21 ta tijorat banki ishtirok etdi. Turli trening, seminar va uchrashuvlar orqali 41 mingdan ortiq yoshlar va 82 ming kattalar bevosita qamrab olindi, umumiy auditoriya esa 2,3 milliondan oshdi. Ayniqsa banklar tomonidan uyushtirilgan interaktiv mashg'ulotlar, viktorinalar va moliyaviy treninglar orqali yoshlar o'z bilimlarini oshirish imkoniga ega bo'ldilar. 2025-yilda esa ushbu tashabbuslar yanada kengaytirildi. Masalan, Garant Bank maktab o'quvchilari uchun moliyaviy xavfsizlik va onlayn to'lovlar mavzusida darslar o'tkazdi. Trustbank esa Jizzax, Namangan, Farg'ona viloyatlarida o'tkazgan master-klasslari orqali ko'plab yoshlar bilan bevosita ishladi. InfinBANK esa pedagoglar o'rtasida tanlovlar tashkil etib, aynan o'qituvchilarning moliyaviy bilimini oshirish orqali keng auditoriyaga ta'sir qilishni maqsad qildi. Fintech ilovalarining kundalik hayotga kirib kelishi ham yoshlar orasida

moliyaviy o'zini o'zi boshqarish madaniyatini shakllantirdi. Jumladan, Click, Payme, Apelsin, Uzun Bank kabi ilovalar orqali yoshlar pul o'tkazmalari, xizmatlar uchun to'lovlar va hattoki byudjetni rejalashtirishni o'zlari amalga oshira boshladilar. Ushbu ilovalarda foydalanuvchilarga byudjetni boshqarish, sarf-xarajatlarni tahlil qilish va tejash bo'yicha tavsiyalar berilmoqda. Bu holat ularning moliyaviy qarorlarni mustaqil qabul qilishiga turtki bo'layotgani bilan ahamiyatli. Yana bir ijobiy holat – bu ta'limda edutainment, ya'ni “ta'lim + ko'ngilochar” formatdagi yondashuvning keng joriy etilayotganidir. Markaziy bank tashabbusi bilan “World of Finance” onlayn platformasi, radio dasturlar, qisqa hajmli seriallar va hatto moliyaviy xatolar mavzusidagi qo'shiqlar orqali millionlab yoshlar ongiga moliyaviy bilimlar singdirilmoqda. Bunday kreativ uslublarda yoshlar e'tiborini jalb qilishda va mavzuni yengilroq tushunishda katta yordam bermoqda. Shuningdek, 2025-yil aprel oyida Toshkentda bo'lib o'tgan Global Money Week doirasidagi Yoshlar forumi katta qiziqish uyg'otdi. Unda talabalar fintech kompaniyalari va bank vakillari bilan ochiq muloqotda bo'lib, amaliyot va innovatsion xizmatlar haqida o'z bilimlarini boyitdilar. “Case championship” formatidagi tanlovlarda ishtirok etgan yoshlar real moliyaviy muammolar yechimini izlab, o'z fikrlash doiralarini kengaytirdilar. Yuqorida keltirilgan faktlar shuni ko'rsatadiki, fintech kompaniyalari va banklarning yoshlar bilan ishlashdagi yondashuvi, innovatsion texnologiyalarning jalb qilinishi hamda edutainment kabi kreativ metodlarning qo'llanilishi natijasida O'zbekistonda yoshlarning moliyaviy savodxonligi yildan-yilga ortib bormoqda. Bu esa nafaqat ularning shaxsiy byudjetini samarali boshqarishiga, balki uzoq muddatli moliyaviy maqsadlarni shakllantirishiga ham xizmat qilmoqda.

Munozara. Yoshlar uchun moliyaviy savodxonlikning ortib borayotgan ahamiyati bugungi raqamli davrda yanada yaqqol sezilmoqda. Ular nafaqat oddiy to'lovlarni amalga oshiradi, balki moliyaviy qarorlar qabul qilish, byudjetni rejalashtirish, investitsiya kabilarni ham o'rganishga harakat qilmoqda. Bu borada fintech kompaniyalari va banklarning raqamli loyihalari katta imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Ilgari moliyaviy bilimlar faqat darsliklar yoki maxsus kurslar orqali berilsa, hozirda yoshlar smartfon orqali moliyaviy dunyoni tushunishga erishmoqda. Click, Payme, Apelsin, Ipak Yo'li ilovalari orqali ular kunlik tranzaksiyalarni amalga oshiribgina qolmay, balki xarajatlar monitoringini olib borish, avtomatik tahlillar orqali qayerga qancha mablag' ketayotganini ham ko'rib chiqish imkoniyatiga ega. Bu – yoshlar moliyaviy savodxonligining tabiiy ravishda oshib borayotganini anglatadi. Fintech kompaniyalari bu jarayonda oddiy xizmat ko'rsatuvchidan ko'ra, o'qituvchi, yo'l ko'rsatuvchi va ilhomlantiruvchi vosita vazifasini bajarmoqda. Masalan, Payme for Business orqali boshlang'ich bosqichdagi yosh tadbirkorlar o'z savdolarini tahlil qilishi, cheklangan byudjetda faoliyat yuritishning eng maqbul usullarini topishi mumkin. Shu orqali moliyaviy resurslar to'g'ri yo'naltiriladi va sarf-xarajatlarda tartib

yuzaga keladi. Shuningdek, fintech sohasi orqali moliyaviy xizmatlarning ommaviyligi ham oshmoqda. Avvallari faqat banklarga borgan holda ochiladigan hisob raqamlari, endilikda ilovalar orqali bir necha daqiqada ro'yxatdan o'tiladi. Bu esa bank tizimiga ishonch ortishi va yoshlarning moliyaviy inklyuzivlikka keng jalb qilinishiga olib kelmoqda. Ammo bu jarayon muammolarsiz ham emas. Ko'plab yoshlar uchun moliyaviy ilovalardan foydalanish o'rganilgan avtomatik odatga aylangani holda, moliyaviy mas'uliyatning asosiy tushunchalari – "rejalashtirish", "risk baholash", "zaxira yaratish" kabilar hali yetarlicha tushunilmagan. Ba'zilar esa kredit yoki bo'lib to'lash funksiyalaridan noto'g'ri foydalanib, o'zlarining moliyaviy mustaqilligini xavf ostiga qo'yishmoqda. Shuningdek, so'nggi paytlarda turli moliyaviy piramida va aldov sxemalari yoshlar orasida tez tarqalayotgani, moliyaviy savodsizlikdan foydalanish holatlarini ham ochiqalaydi. Bu esa yana bir bor moliyaviy ta'limning chuqurroq, tizimliroq bo'lishi zarurligini ko'rsatadi. Yana bir muhim jihat – bu jarayonga oila va ta'lim muassasalarining jalb qilinishi. Ota-onalar farzandlariga moliya bilan bog'liq oddiy tushunchalarni o'rgatmas ekan, yoki maktablarda bu boradagi mashg'ulotlar sun'iy bo'lib qolsa, fintech ilovalari yolg'iz o'zi yetarli bo'lmaydi. Aynan shu yerda davlat va xususiy sektorning hamkorligi alohida ahamiyat kasb etadi. Markaziy bank, Xalq ta'limi vazirligi, tijorat banklari va startap kompaniyalarning qo'shma loyihalari ko'p bo'lsa, moliyaviy ta'lim yanada kuchliroq ta'sir ko'rsatadi. Bugungi raqamli iqtisodiyotda yoshlarning moliyaviy savodxonligini oshirishda fintech kompaniyalari muhim vosita bo'lib qolmoqda. Ammo bu faqat texnologiya emas – bu tushuncha, odat va madaniyat hamdir. Shu bois kelgusida ham bu jarayonga har tomonlama yondashish, tizimlilik va real ehtiyojlarni inobatga olish orqali moliyaviy barqarorlikka erishish mumkin bo'ladi.

Xulosa. Yoshlarning moliyaviy savodxonligi – bu ularning shaxsiy va kasbiy hayotidagi muvaffaqiyatga ta'sir qiluvchi muhim omildir. Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning tez rivojlanishi va fintech kompaniyalarining faol kirib kelishi yosh avlodga moliyaviy bilim va ko'nikmalarni tez va qulay o'rganish imkonini bermoqda. Fintech xizmatlar, jumladan, to'lov ilovalari, onlayn banking, investitsiya platformalari orqali yoshlar moliyaviy operatsiyalarni mustaqil ravishda bajarishga, byudjet tuzishga, xarajatlarni nazorat qilishga o'rganishmoqda. Ayniqsa, O'zbekistonda soni ortib borayotgan zamonaviy moliyaviy texnologiyalar ta'lim jarayonini to'ldiruvchi vosita sifatida xizmat qilmoqda. Shunga qaramay, bu jarayonda muammolar ham mavjud: ayrim foydalanuvchilar moliyaviy ilovalardan foydalanayotgan bo'lsa-da, bu ularning moliyaviy madaniyatga ega ekanini anglatmaydi. Tushunchaviy bilimlar, mas'uliyatli yondashuv va xavfsizlik madaniyati hali ham rivojlantirilishi zarur. Shu bois, fintech xizmatlar moliyaviy savodxonlikni oshirishga xizmat qilishi uchun ularni faqatgina qulay vosita emas, balki o'quv va tarbiyaviy resurs sifatida ham ko'rish lozim. Davlat, ta'lim tizimi va xususiy sektor

o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish, yoshlar uchun interaktiv, tushunarli va real hayotga moslashtirilgan moliyaviy ta'lim dasturlarini yaratish kelajak uchun muhim vazifalardan biridir. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, fintech kompaniyalari yoshlar moliyaviy ta'limining zamonaviy yordamchisi bo'lib, bu imkoniyatdan to'g'ri foydalanilsa, jamiyatda moliyaviy barqarorlik, ishonchli iqtisodiy qarorlar va mas'uliyatli moliyaviy xulq-atvorni shakllantirish mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Deloitte. (2023). Fintech and financial inclusion: Bridging the gap for the next generation. Retrieved from <https://www2.deloitte.com>
2. Global Fintech Report. (2023). The rise of fintech in education and financial literacy. Ernst & Young. Retrieved from <https://www.ey.com>
3. Karimova, N., & Salimov, D. (2022). O'zbekiston yoshlarining moliyaviy savodxonlik darajasi: muammo va yechimlar. Ta'lim va taraqqiyot, 2(5), 66–72.
4. Murodov, A. (2023). Fintech xizmatlarining iqtisodiy samaradorligi va yoshlar orasida qo'llanilishi. Iqtisodiyot va innovatsiyalar, 4(3), 112–118.
5. OECD. (2023). Financial literacy and the role of fintech in youth engagement. Paris: OECD Publishing. Retrieved from <https://www.oecd.org>
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2023). Moliyaviy savodxonlik bo'yicha milliy dastur tahlili. Retrieved from <https://www.cbu.uz>
7. O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. (2024). Raqamli xizmatlardan foydalanish holati va istiqbollari. Retrieved from <https://mitc.uz>
8. Statista. (2024). Fintech app usage rate among youth worldwide and in Central Asia. Retrieved from <https://www.statista.com>
9. Central Asia Fintech Forum. (2024). Regional trends and innovations in financial technology. Retrieved from <https://ca-fintech.org>
10. World Bank. (2022). Enhancing financial capability and inclusion in emerging markets. Washington, D.C.: The World Bank. Retrieved from <https://www.worldbank.org>